

# TONG yulduzi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiga boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasи

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

2011-YIL  
12-DEKABR  
N-50  
(66851)

ISSN - 2010-6092

2012-yil -  
**Mustahkam oila yili**



Mening ismim Mirkomil,  
Olti yoshga to'lamon.  
Katta bo'lsam, albatta,  
Yurt posboni bo'laman!



Yakkasaroy tumanidagi 160-ixtisoslashtirilgan  
Davlat umumta'lif maktabida  
O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi  
qabul qilingan kun keng tantana qilindi.

Davomi 2-betda

(Boshi 1-betda)

# KONSTITUTSIYAMIZ O'N TO'QQIZ YOSHDA!



Nigora Boymo'minovaning eng yaqin do'sti – kitob.

Poytaxtimizdagi talaygina maktablarda ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda Davlat madhiyasi qabul qilingan kunga bag'ishlangan bayram tadirlari bo'lib o'tdi.

o'quvchilaridan biri. A'lo o'qish bilan birga, bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishga harakat qilyapti. Ingliz tilini puxta o'rganishga, shaxmat to'garagi qatnashga ham vaqt topyapti.

chaning dilini yaratdi. Chunki uning quvnoq raqlarida zavq bor-da! Bejizga Nasiba «Yangi avlod –



Hasan-Husan ijoddha ham hamfikr.

Bolajonlar! Siz baxtimiz poydevori, qonunlarimiz us-tuvori bo'lmish Konstitutsiyamiz mohiyatini chuqr o'rganishga intlyapsiz. Bilasizki, har kim bepul bilim olish huquqiga ega. Bu esa davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratida ekanligini juda yaxshi tushunasiz.

Maktabdagi ustozlaringiz bu borada sizning eng yaqin ko'makchingiz. Berilayotgan imkoniyatlardan, yaratilayotgan sharoitlardan oqilonqa foydalishan sizning asosiy maqsadgingizdir. Yakkasaroy tumanidagi 160-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi Nigora Boymo'minova maktabning eng iqtidorli



Surailar nataliji: ZUHRA

5-«A» sinf o'quvchisi Na-siba Baxtiyorova-ning raqsdagi mahorati bar-

bolar ijodi-yot festivali-ning Respublika bosqichi

ishitirochisi bo'limida.

5-«A» sinf o'quvchisi Risolat Rahimjonova o'zbekcha raqlar bilan bir qatorda hindcha, eroncha, arabcha raqlarini ham maromiga yetkazadi. Sababi, u «Asal» raqs dastasi a'zosi.

7-«A» sinf o'quvchilarini Hasan-Husanlar mahorat bobida tengsiz ekan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Hasan rasm chizishga, Husan esa she'rlar yozishga qiziqadi. Bu dargohda ilm olayotgan har bir o'quvchi o'z iqtidorini to'la namoyon etishga qodir. Zero, davlatimiz bugungi yoshlarga ishonadi. Ishonchni oqlash esa yuksak mas'uliyatdir.

MA'MURA, FERUZA

\* \* \*

\* \* \*

Toshkent viloyatining Qibray tumanidagi harbiy qismida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 20 yilligi oldidan madaniy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Davrani qism komandirining harbiy ishlari bo'yicha muovini Elbek Mataliyev ochdi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoira Ziyoda Xo'janiyozova «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobi va uning mazmun-mohiyati haqida ma'ruza qildi.

Uchrashuv so'nggida Prezidentimizning «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobi hamda ijodkorning she'riy to'plami harbiylar kutubxonasiga taqdim etildi.

Dilshoda JO'RAYEVA



O'z muxbirimiz



Mirobod tumanidagi 125-umumta'lim maktabida Toshkent shahar xalq ta'limi vazirligi hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamkorligida «Konstitutsiyamiz – baxtimiz poydevori» shiori ostida ko'rik-tanlov o'tkazildi. Tanlovda tumanning barcha maktablaridan g'olib o'quvchilar qatnashdilar.

Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatini ifoda etgan eng yaxshi rasmlar, plakatlar va chizmalar ko'r gazmaga qo'yildi. Davlatimizning asosiy qonuni haqidagi 15-20 daqiqalik videoroliklar tanlov o'tkazildi. Konstitutsiyaning moddalaridan namunalar o'qildi. O'quvchilar tomonidan sahna ko'rinishlari, raqlar ijro etildi.

Ko'rik-tanlovda 1-o'rinni egallagan o'quvchilar shahar bosqichiga yo'llanma oldilar. Faol ishtirok etganlar «Faxriy yorliq» va esdalik sovg'alari bilan taqdirlандilar.

Shayxontohur tumanida joylashgan 59-Davlat ixtisoslashgan umumta'lim maktabida «Konstitutsiya mening qomusim» mavzusida ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoira Umida Abduaizimova, «Sog'lom avlod» gazetasi muxbir Maryam Ahmedova hamda o'quvchilar va o'quvchilar ishtirok etishdi. Uchrashuvni muassasaning ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinosari Zarifa Pirmuhammedova ochdi. Shoira Umida Abduaizimova o'z ijod namunalardan o'qib berdi. Uchrashuv qizg'in bahs va savol-javoblar tarzida o'tdi.

Ayniqsa, ona tili va adabiyot fani o'quvchilar Xosiyat Suvonova va Muhamayo Niyozenovlarning tashabbus-korligi mehmonlarni xushnud etdi.

Muzaffar AHMEDOV



## KASHFIYOTCHILAR KERAK

Mirzo Ulug'bek bobongiz Galileydan ancha ilgari Yer o'z o'qi atrofida aylanishini isbotlab bergan edi. Abu Rayhon Beruniy sanskrit, fors, arab, ivrit, yunon va boshqa tillarni mukammal bilardi. U birinchi bo'lib dunyoning xaritasini, Yer shari nusxasini yasagan edi.

Ulug' olmon shoiri Gyote: «Sharqda yettila buyuk shoir bor. Ularning eng kuchsizi ham mendan ustun turadi», degan edi.

Shoir ham kashfiyotchi hisoblanadi. U shunday tuyg'ularni kashf etadiki, eng ilmdor olim ham bunday tuyg'ularning kalitini topolmaydi. Siz yangi texnika o'ylab topuvchi ixtirochi bo'ling. Ko'ngil sirlarini kashf eting. Kashfiyot-laringizni bizga yuboring!

## O'ZBEKİSTONDA «HD» FORMATIDAGI TELEVİDENİYE



Bolalar!

Siz bu to'g'rida eshitdin-giz. Demak, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari orasida «HD» (High Definition) formatidagi televideniye loyihasi birinchi bo'lib O'zbekistonda – bizda amalga oshirildi. Efir vaqt 24 saat. Xo'sh, bu nima? «HDTV» eng so'nggi rusumdagи raqamli texnologiyalardan foydalanuvchi yuqori sifatlari televideniye standartlari to'plamidir.

SHAHNOZA tayyorladi



## ODOBNING BOŠI - XUSHAXLOQ

Faollar zaliga yig'ilgan mehnmonlar va ustozlar 2-«Ye» sinf o'quvchilar tayyorlagan tarbiyaviy soatni maroq bilan tomosha qila boshlashdi. O'quvchilar «Odobning boši - xushaxloq» ekanini ta'kidlab, «Toza ko'zaning suvi toza», «Toza uyda dard qolmas», «Pokliging - sog'lig'ing» kabi maqollarni sharhlab berishdi. Orasta qizlar soch turmaklash, hovli supurish, kiyinish odobi haqida so'zlab, chiroli sahna ko'rinishlarini ijro etdilar. Bunda zavqlangan «Nuroniy» jamg'armasi qoshidagi «Faol faxriy ayollar» guruhiga a'zolari Muhamarram Muhiddinova, Mavluda Latipovalar «Ustozingizga ham, o'zingizga ham ofarin!» deya o'quvchilarni olibishlashdi. Qizaloclolar:

*Zar do'ppisi jiloli,  
Qirq kokili tilloli,  
O'zbeginning qizlari,  
O'zi shirin iboli*, deya

Tahririyatimizga maktablarda o'tkaziladigan tadbirlarga taklif qilib, ustozlar tez-tez qo'ng'iroy qilib turadilar. Navbatdagi qo'ng'iroy poytaxtimizdagagi 274-maktabdan bo'lganida, ushbu maskanda «Yaxshi o'g'il - el obro'si, yaxshi qiz - uy obro'si» deb nomlangan tadbir o'tkazilayotganidan xabar topdik.



Kuylashganda, faollar zalini qarsaklar tutib ketdi.

«Oqtepa» mahallasi faoli Gulchehra Karimova «Bolani bosh'dan, qizni yoshdan o'rgat» deb bejiz aytilmaganini uqtirib o'tdilar. «Kiyiming kimligining anglatadi», «Buvimning nasihati», «Sochlari tolim-tolim»

mavzuidagi hayotiy voqealarni sahnada jonlanitirgan Shahzoda Tolipova, Dilraba Obidova, Otabek Yo'ldoshev kabi o'quvchilarga «Maqtov yorliqlari topshirildi.

Ushbu tadbiriga boshlang'ich sinf o'qituvchisi Dilorom Mo'minovaning jiddiy tayyor-



Poytasimizdagagi «Barkamol avlod» Respublika bolalar texnik ijodiyoti markazida o'quvchi yoshlar o'rtaida «Konada uchuvchi samolyot modellari» Respublika birinchiligi o'tkazildi. Musobaqa yurtimizning turli viloyatlaridan tashrif buyurgan tengoshlarining ayrimlarini suhabatga tortdik:

**Shahboz BAFOYEV**, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 66-Bolalar va o'smirlar sport maktabining 7-sinf o'quvchisi:  
- Men viloyatimizdagagi «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazining aviamodelchilar to'garagiga 3 yillardan buyon qatnayman. To'garagimiz rahbari Shamsiddin aka Bafoyev aviamodellarning turlari, ularning yasalishini qunt bilan o'rgatadilar.



**Shahzoda VAFOXO'JAYEVA**, Samarcand shahridagi 1-umumta'l'm maktabining 7-sinf o'quvchisi:  
- Texnikaga qiziqishim kuchliligidan «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazining aviamodelchilar to'garagiga a'zo bo'ldim. To'garagimiz rahbari Nikolay Mixailovich Jukov bilan birgalikda ko'plab aviamodellar yasadik. Respublika bosqichiga yo'llanmani qo'liga kiritishinda to'garak rahbarimizning hissasi katta bo'ldi.



Biz bu o'quvchilarning ustozlarini ham suhbatga tortdik:  
- Markazdagi aviamodelchilar to'garagiga 20 nafardan ziyyod bolalar qatnashadilar. Bu bolalarning tirishqoqligi, qiziquvchanligidanmi, ular bilan qancha ishlasmam ham charchamayman, - deydi to'garak rahbari Abdunabi aka Hojiboyev.



**Asliddin YUSUPOV**, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 28-maktabning 8-sinf o'quvchisi:  
- Bu musobaqada qatnashishdan maqsadim, albatta, Respublika bosqichi g'olib bo'lish. Bo'sh vaqtlarimda qo'l to'pi sport to'garagiga ham qatnashaman. Yutuqlarimdan yaqinlarim g'ururlanib yurishsa, deyman.

## GUL-U G'UNCHAMAN



garlik ko'rgani o'quvchilarning chiqishlaridan sezilib turibdi, - deydi maktab direktori Sayfulla aka Mahkamov. - Yosh bo'lishiga qaramay o'z ustida timimsiz ishlash, o'quvchilar savodxonligini oshirayotgan bunday o'qituvchilarni maktabimiz faxri deb aytgim keladi.

**Munisa Abdusattorova**, 8-«Ye» sinf o'quvchisi, «Nihol» yosh qalamkashlar to'garagi a'zosi:

- 2-«Ye» sinf kichkintoylari bizni ham tadbirga taklif qilishganida, juda xursand bo'lib ketdik. Bilag'on, zukko uka va singillarimizning odob-u axloq qoidalarini ham o'rganayotganlari barchani qovntirdi.

Biz ham tadbirni ko'ngilagidek o'tkazib, biroz toliqqan o'g'il-qizlarga rahmatlar aytib, ular bilan xayrashdik.

**Gulyuz BAHODIR** qizi, o'z muxbirimiz

*Mustaqil yurt bag'rida,  
Quvnab o'sgan qizchaman.  
Chaman-chaman bog'larda,  
O'sgan gul-u g'unchaman.*

*Dunyo ahli mahliyo,  
Go'zal koshonalar bor,  
Ko'rmaganlar armonda,  
Sharqda tanho-bu diyor.*

*Kamol topib bo'laylik,  
Senga munosib avlod.  
Temur bobom ruhini,  
Doimo etaylik shod.*

**Munisa ABDUSATTOROVA**

*Bu orada musobaqa yakunlani, g'oliblar aniqlandi. Jamoalar bo'yicha:*

*1-o'rin - Buxoro viloyatiga, 2-o'rin - Samarqand viloyatiga, 3-o'rin esa Andijon viloyatiga berildi.*

**F-1-D** modellari bo'yicha:

*1-o'rin - Samarqand viloyati, Samargand shahridagi 1-maktabning 6-sinf o'quvchisi Shahzoda Vafoxo'jayevaga, 2-o'rin - Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 28-maktabning 8-sinf o'quvchisi Asliddin Yusupovga, 3-o'rin - Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi 246-maktabning 9-sinf o'quvchisi Ravshan Mirzajonovga nasib etdi.*

**F-1-D-N** rezina motorli modellar bo'yicha:

*1-o'rinni - Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 66-Bolalar va o'smirlar sport maktabining 7-sinf o'quvchisi Shahboz Bafoyev;*

*2-o'rinni - Samarcand viloyati, Samarcand shahridagi 5-maktabning 9-sinf o'quvchisi Akobir Sharipov;*

*3-o'rinni - Andijon viloyati, Andijon shahridagi 50-maktabning 4-sinf o'quvchisi Erkinboy To'chiboyev egalladilar. G'olib o'quvchilar Xalq ta'limi vazirligi tomonidan «Faxriy yorliq» hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlандilar.*

*Shuningdek, o'quvchilarning viloyat bosqichida g'olib bo'lib, Respublika bosqichiga yetib kelishishda jonbozlik ko'satgan to'garak rahbarlari ham «Barkamol avlod» Respublika bolalar texnik ijodiyot markazining «Faxriy yorliq»lari hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlандilar.*

**Ozoda TURSUNBOYEVA**  
**Suratlар муаллиф: Z.MUHSIMOVA**



Alisher Pardayev,  
Surxondaryo viloyati  
xalq ta'limi  
boshqarmasi boshlig'i

**Termiziylar ulg'aygan vohaga qilgan safarimiz ham juda maroqli, mazmunli o'tdi. Ta'lif sohasidagi islohotlar, yangiliklar, qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan qiziqdik. Bu xususda viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Alisher Pardayev bizga quyidagilarni gapirib berdi:**

Javob qaytarishyapti. Fan olimpiadalarida qatnashib, viloyatimiz sharafini munosib himoya qilib kelishyapti. 2010-2011-o'quv yilida o'tgan fan

tabi -2011» ko'rlik-tanloving Qashqadaryo viloyatida bo'lib o'tgan respublika bosqichida Termiz tumanidagi 16-maktab jamoasi ham ishtirok etdi.

bilan mutazam shug'ullanuvchilar 74139 nafarni tashkil etadi. Viloyat xalq ta'limi tizimida badiiy gimnastika, futbol, basketbol, yengil atletika,

# TERMIZIYLAR ULG'AYGAN TUPROQ

Viloyatimizda 852 ta umumiyo o'rta ta'lim muassasalarini faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularda 379076 nafar o'g'il-qiz ta'lim-tarbiya olmoqda. Umumiyo ta'lim muassasalarining 822 tasini umumiyo o'rta ta'lim maktablari, 17 tasi Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internati, 5 tasi Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi, 1 tasi Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim majmuasi, 3 tasi futbolga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari, 2 tasini sanatoriya, 2 tasini maxsus maktab-internatlari tashkil qildi. Bu maskanlarda o'z kasbinining fidoyisi bo'lgan tajribali ustoz-muallimlar qo'lida tahsil olayotgan o'quvchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ularning puxta bilim olishlari, sog'lam, barkamol ulg'ayishlari uchun imkoniyatlар bisyor.

Davlatimiz tomonidan ko'r-satilayotgan bunday g'amxo'rliklarga o'quvchilarimiz har sohadagi yutuqlari bilan munosib

olimpiadalarining II bosqichida o'quvchilarning ko'satkichlari 2009-2010-o'quv yiliga nisbatan 2,8 foiz o'sishiga erishildi. Fan olimpiadasining respublika bosqichida Boysun tumanidan 2 nafar, Uzun tumanidan 1 nafar o'quvchimiz muvaffaqiyatli ishtirok etib, ko'ksimiz tog' qilishdi.

Xalq ta'limi vazirligi Toshkentdagi Gyote instituti bilan hamkorlikda «Maktablar – kelajakdag'i hamkorlar» dasturi doirasida Termiz shahridagi 15-ixtisoslashtirilgan maktab-internatda bo'lib o'tgan «Fit in Deutsch 1» va «Fit in Deutsch 2» sinov imtihonlari g'olib bo'lgan maktab-internatinining 3 nafar o'quvchisi Niyatullo Shugifa, Malika Xolmirzayeva, Asror Qulmamatov hamda nemis tili fani o'qituvchisi P. Abriulov Germaniyada yozgi o'quvchilar kursida ishtirok etishdi.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan «Yilning eng yaxshi mak-

Mazkur «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» da viloyatdagi mavjud maktab-gacha va umumiyo o'rta ta'lim muassasalarida 16100 dona parranda parvarishlanmoqda. Ulardan 993,5 ming dona tuxum olindi. Ta'lim maskanlarda 805 bosh qoramol boqilmoqda. Olingan sut miqdori 741,6 tonnani tashkil etdi. Muassasalar tomonidan 23,6 hektar yerda bog' barpo etildi. 57610 tup mevali daraxt ekildi. 33 hektar joyda sabzavot, 30,6 hektar joyda poliz, 48,8 hektar yerda kartoshka yetishtirildi.

Viloyatimizda bolalar sportini rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joyolari o'quvchilarni jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga ommaviy jalb etish borasida ham talaygina ibratli ishlarni amalga oshirilayapti. Ta'lim muassasalarida 3282 nafar jismoniy tarbiya o'quvchilari o'quvchilarga jismoniy tarbiya va sport yo'nalishida ta'lim-tarbiya berishyapti. Sport

tennis, kurash kabi 22 ta sport turi bo'yicha to'garaklar faoliyat olib bormoqda.

O'quvchi-yoshlarimizning kitobxonligi, gazetxonligi borasida ham ibratli ishlarni talaygina. Viloyat axborot-resurs markazidagi 104 mingdan ziyod nusxadagi bosma nashrlar hamda 5000 dan ortiq elektron kitoblar, lokal tarmog'iga ulangan kompyuterlar 15000 dan ziyod kitobxonlar ixtiyorida. Ayni kunlarda gazeta va jurnallarga obuna ishlari qizg'in olib borilmoxda. Barchamizning bolalikdag'i sevimli nashrimiz «Tong yulduzi» gazetasiga ham obuna jarayoni avjida. Bu gazeta o'quvchilarini soni qancha ko'p bo'lsa, biz mammun bo'lamiz. Chunki u farzandlarimizning bo'sh vaqtlarini mazmuni o'tishiga xizmat qilibgina qolmay, bilimini, ma'naviyatini boyitadi, dunyo-qarashini kengaytiradi, iqtidori va salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

O'z muxbirlarimiz

(Boshi o'tgan sonlarda)

## 2-saboq

Ikki do'st Ahmadjon bilan Dilshod ko'chaga chiqishdiyu, yo'ldan o'tishda bahslashib qolishdi. Ahmadjon kuyib-pishib:

– O'taqlasang-chi bu yoqqa, – deb chap tomonga yurash, do'sti Dilshod o'jarlik qilib:

– O'ng tomonidan yuramiz, – deb turib oldi, – Qara, mashinalar ham o'ng tomonidan ketayapti-ku, biz ham shu yoqdan yuramiz.

Aziz o'quvchilar, bilamizki, orangizda ana shu tengdoshlarigizga o'xshash o'quvchilar ko'p. Ular piyodalar yo'lkasi bo'lgan yoki bo'limgan yo'llarda qanday harakatlanishni bilmaydi. Piyodalar yo'lkasi bo'limgan yo'llarda piyodalar yo'lning chap tomonidan bir qator bo'lib yurishlari zarur. Bunda ular old tomonidan kelayotgan transportni ko'rib, hushyor bo'ladilar. Transport haydovchisi ham ularni ko'rib, ehtiyyot bo'ladi. Ko'pchilik bo'lib sayrga chiqilganda esa yo'lning o'ng tomonidan to'rt qator bo'lib yurish mumkin. Bu holda

## YO'L DAN O'TISH QOIDALARI



kolonnaning oldidagi boshlovchi va oxiridagi kuzatuvchi qo'llariga bayroqchalar ushlab olishlari kerak. Agar kolonna to'lganda yoki to'da harakat qilishi kerak bo'lsa, u holda boshlovchining qo'lida oq fonar, kuzatuvchining qo'lida qizil chiroq – fonar bo'lishi zarur.

Yo'llarda to'da bo'lib to'planib turish, o'yin o'ynash taqiqlanadi. Yo'lni kesib o'tayotganda, avval chap tomonga qarash lozim. Transport kelmayotganiga ishonch hosil qilgach, ko'chani kesib o'tish lozim. Yo'lning qoq o'rtasiga maxsus ajratilgan xavfsizlik oroliga yetgach, ko'chaning o'ng tomoni kuzatiladi. Transport kelayotgan bo'lsa, xavfsizlik orolida biroz turib, uni kuzating. O'ng tomonidan transport kelayotganligiga ishonch hosil qilgach, ko'chaning qolgan qismidan o'ting.

Yo'ldan o'tayotganda, doimo hushyor bo'ling! Yo'l qoidasi – umr foydası ekanligini unutmang!

(Davomi bor)

Tohir MULLABOYEV



## KIMYO FANIDAN TEST

1. O'zbekistonda aholi yashaydigan joylar qaysi qazilma boyliklari nomiga qo'yilgan?

- A) Buxoro viloyatidagi Gazli;
- B) Farg'ona viloyatidagi Oltingugurt;
- C) A-B javoblari to'g'ri.

2. Quyosh ma'nosini beruvchi element nomini aytинг.

- A) geliy;
- B) vodorod;
- C) kislород.

3. Bug'ga aylangan suvning hajmi necha martaga kengayadi?

- A) 1700;
- B) 700;
- C) 100.

4. Inson oshqozonida qanday kislota bor?

- A) xlorid kislota;
- B) sulfat kislota;
- C) hech qanday kislota yo'q.

5. Kimyoda eng ko'p ishlataladigan asbobning nomini aytинг.

- A) probirka;
- B) stakan;
- C) qisqich.

# FIKRIMIZNI CHARXLAYMIZ

Aziz o'quvchilar!

Fikrli bola har qachon o'ziga yo'l topadi, adashmaydi, olgan ilmini kerakli o'rintlarda sarflay biladi. Sizlar bilan shu to'g'ida fikr yuritish uchun yangi sahifa tashkil qildik. Mazkur sahifa har oyda ikki marta tayyorlanadi. O'qing, fikrlaringizni yozib yuboring!

Bir obro'li odam o'g'-lini donolarga shogirdlikka beribdi. Bola ustozlari qo'lida turli fanlardan saboq olibdi, ya'ni jon kuydirib, unga ilm o'rgatibdilar. Nihoyat, bola ulg'ayib, saboqlar nihoyasiga yetibdi.

Otasi ustozlarining oldida uni sinab ko'rmoqchi bo'libdi va oltin uzugini yashirib, qo'llim-dagi nima, deb so'rabdi. O'g'li shu zahoti qalam-qog'oz olib, hisob-kitob qilibdi-da, qo'lingizda o'tasi teshik narsa bor,



*Isroil NORQUVVAJOV:*

Men olis Surxondaryo viloyatidan kelib, Toshkent shahridagi harbiylashtirilgan maxsus maktab-internatinning 5-«A» sinfiga tahsil olyapman. Maktabimiz rahbari Ansab Sayidolimov, komandirlarim Ulug'bek va Jahongir akalardan yoshlikdanog harbiy intizomga rioya qilish, sabr-bardoshli, matonatl bo'lish borasida saboq olmoqdaman. Barcha maktabdoshlarim birdek yaxshi ko'radian ustozimiz Shoira opa Matrasulovaning dono o'gitlari kundalik hayotimizda asqotib kelmoqda. Kelajakda Vatanga munosib posbon bo'lmoqchiman.



## ODOBLI SO'ZLASH – INSON KO'RKI

Inson yaralibdiki, u yorug'likka, ilmg'a, ma'rifatga intilgan. Ma'rifatli insonlar ko'paygan jamiyatda esa taraqqiyot, rivojlanish kuchli bo'lgan. Azal-azaldan diyorimizda inson tarbiyasi, uning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirishga ustuvor vazifa sifatida qaralgan. Darha-qipa, bugun yurtimizda ta'lim-tarbiyaga, ma'naviyatga, ilm-fanga qaratilayotgan e'tibor katta. Buning natijasida yoshlарimizning bilim salohiyati oshib

bormoqda. Ma'naviyatning asosida esa yoshlарimizning odob-axloqi, muomalा madaniyati yotadi. Ko'cha-ko'yda, jamoat transportlarida yigit-qizlari-mizning tilimizni buzib so'zlashi kishini g'ashini keltiradi. Ayniqsa, ba'zi tababao'quvchilarning baland ovozda gapirishlari, turli haqoratomuz gaplarni aytishlari atrofdagilarga qanchalik yomon ta'sir qilishini bir o'ylab ko'ring-a!

Ular ko'plab yutuqlarga erishayotgan, milliyigimiz, qadriyatlarimizga sodiqlik ruhida tarbiyalanayotgan, yurtning kelajagi uchunjon kuydirib bilim olayotgan tengqurlaridan o'nak olishsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

*Mavluda RAHIMOVA,  
Toshkenti moliya va iqtisodiyot kolleji o'qituvchisi*



## FIKRLAMOQ HAM SAN'AT

deya javob qilibdi.

Otasi xursand bo'libdi va: «Xo'sh, unima ekan?» deb so'rabi.

Bola: «Tegirmon toshi!», deb javob qilibdi.

Otasining jahli chiqib ketibdi:

– Qanaqa befirk bolasan? Odamning qo'liga hech zamonda tegirmon toshi sig'adimi? – debdi jig'ibiyron bo'lib.

Zero, ilmga fikrash orqali erishildi.

\* \* \*

Xullas, fikrashda gap ko'p.


Qani, siz ham bir fikrlab ko'ring-chi?

1. Do'st kerakmi, ol-tin?

2. Nega hammadan avval salom berish kerak?

3. Ota o'tirgan uyning tomiga chiqish mumkin emas, deyishadi. Nega?

**Javoblarining sahifamizda e'lon qilinadi.**



## QUYOSH

Nurga belanar olam,  
Ko'kda ko'rinsa quyosh.  
Eh, qandayin chiroyli,  
Maysalar ko'zida yosh!

Qanday go'zal manzara,  
Quyosh chiqish-botishi.  
Oying esa tog' bilan,  
Quchoqlashib yotishi.

Mahbuba ABDULAZIZOVA,  
Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumanidagi 72-maktab o'quvchisi



*Umida ABDUAZIMOVA  
deydi:*

– Madaniyatli qizlar ma'naviyati qanaqa kuylarni sevishi yoki did bilan kiyinishida emas, balki uy tutishi, mehmon kutishida ham namoyon bo'ladi. Shohona hovli-joyi bo'lsa-yu, bu go'zallik ramzi sifatida yashnab turmasa, unda yashaydigan qiz bolaning holiga voy! Siz, eng avvalo, o'z uyingizni tartibga keltirib oling. Ayayilik, muzlatigich mehmonxonada, chinni saqlaydigan javon hech qachon yotoqxonada turmaydi. Uy tutish madaniyati xonalarni to'g'ri jihozlashdan boshlanadi. Aks holda, ro'zg'or ishlarini bajarishda u xonadan bu xonaga yelib-yugurib char-chaysiz. Zamoniaviy uy jihozlari yoki qimmatbaho mebellar, gilam yoki billur idishlar did bilan joylanmasa, ozoda saqlanmasa, qadrini yo'qotadi. Faros-satlari qizlar bor bisotini ko'zko'zlab, javonga yelim idishlar-u, gul qog'ozlardan tortib, turli o'yinchoqlargacha qalashtirib tashlamaydi. Sandiq, ko'rpa-to'shaklar bugungi kunda uyning bezagi bo'lmay qoldi. Zarurat uchun foydalaniladigan bunday buyumlarni ham ko'zdan panaroqqa joylashtirish kerak.

## O'QISHNI SEVING!

O'qish juda katta baxt,  
Sharafli vazifadir.  
Kitoblar-chi, misli taxt,  
Bebaho xazinadir.  
Mening ona yurtimda,  
Barcha bola o'qiydi.  
Vatan madhini kuylab,  
She'r-u g'azal to'qiydi.

*Fotima NORQULOVA,  
poytaxtdagi 162-umumta'lim  
mabitabining 4-«A» sinif  
o'quvchisi*

## QORBBOGOA

Xush kelyapsiz, Qorbobo,  
Sovg'a qopib bor bobo.  
Biz yig'ildik bayramga,  
Kattagina ayvonga.

Archamiz atrofida,  
Mazza qilib o'ynaymiz.  
Siz keltirgan rang-barang  
Sovg'alardan quvnaymiz.



Dilbaroy PRIMOVA,  
Uchtepa tumanidagi  
296-umumta'lim  
mabitabining 4-«A» sinif  
o'quvchisi



## QISH ERTAGI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qalın o'rmonda shunday voqeа sodir bo'lgan ekan:

O'rmondagи bir uychada quyoncha yashardi. U qishni juda yaxshi ko'rар, bu faslni orziqib kutar ekan. Qish kelishi bilan xushxabarni barcha jonzotlarga ayтиb chiqarkan.

O'sha o'rmonda bir bo'ri ham yashar edi. U quyonchaning aksi bo'lib, qishni juda yomon ko'rар ekan. Bir kuni uning qorni surnay chala boshlabdi. Archazordan o'tib ketayotganda, quyonchalarining quvnoq ovozi eshitilibdi. Qarasa, ayiqcha, olmaxon va quyonchalar muzda uchishayotgan ekan. Bo'ri xursand bo'lib ketibdi va o'zini muzda uchayotgan jonzotlarning ustiga tashlabdi. Muz qatlami yupqa bo'lgani uchun bo'rini ko'tara olmay yorilib ketibdi. Ochko'z va yalqov bo'ri muzdeк suvgaga g'arq bo'libdi.

Qissadan hissa shuki, yomonlikning umri qisqa...



Sojida TO'RAXONNOVA,  
7-sinf o'quvchisi

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

– Hozir sahnaga otlar chiqadi. Ular cholganda taraqlamasin, deyishgan-da.

Bu orada tepada o'tirgan mashshoqlar birdaniga musiqa chalib yuborishdi. Shu zahoti sahnaga ikkita oppoq tulpor uchib chiqdi. Ularning ustiga qizil yopinchiq yopib, bezatilgan, boshlariiga zarhal qalpoqlar kiydirilgan edi. Peppi ot desa jonini beradigan qiz

emasmi, tulporlarni ko'rib, chapak chalib yubordi. Otlar sahnani gir aylanib chopa ketdilar. Saldan keyin uzun qamchi ushlagan sirk direktori ko'rindi. U o'ttada turib olib, qamchisini siltadi, tulporlar bir maromda sahnani aylanib chopishdi. Bir vaqt ikkala ot sahma chetidagi to'siqqa yaqinlashdi-yu, oyoqlarini ko'tarib, tomoshabinlarga

bir ot o'ynolab chiqdi. Uning ustida boshdan-oyoq ko'k shoyidan libos kiygan nozikkina, novcha bo'yli qiz tik turardi. Qiz qo'lini ko'tardi va tabassum qilib, o'tirganlarni olqishladi. Ot esa do'ngalak sahnani aylanib chopa boshladи.

Ot ikkinchi bor davra aylanib, Peppining ro'parasiga kelganda, u sakrab turdi-yu, lip etib otning ustiga qo'ndi. Odamlar qarsak chalib yuborishdi. Otdagi qiz

Peppini tutrib, yerga tushrimoqchi bo'ldi. Biroq, Peppi uni mahkam quchoqlab oldi va tomoshabinlarga qarab kulib qo'ydi. Bu manzarani kuzatib turgan direktorming rosa jahli chiqdi. U «Otni to'xtatinglar», deb xizmatkorlariga baqirdi. Karmensita (o'yinchi qizning ismi shunaqa edi) irg'ib tushdi. Peppi ham noiloj otdan tushib, o'mniga o'tirdi. Direktor unga barmog'ini o'qtalib o'dag'ayladi:

– Tomoshani rasvo qilding! Yo'qol mening sirkimdan, bezori!

## PEPPI UZUN PAYPOQ

Astrid LINDGREN, shved yozuvchisi



salom berdi. Peppi irg'ib turdi. Bir bedoving tuyog'ini ushlab, erkataldi:

– E, salom, tulporgina! Mening ham sendek chiroyli otim bor. Bugun uning tug'ilgan kuni. Senga undan salom obkeldim.

Direktorga Peppining gapi yoqmadi. U qamchisini charsillatib havoda o'ynatdi. Uchqur otlar darrov to'siqdan oyoqlarini olib, tag'in sahna bo'ylab aylana boshladilar.

Tulporlar birin-ketin ichkariga kirib ketishdi. Zum o'tmay o'rtaga chiroyli

## Tengdoshlarigiz ijodi

Tahririyatimizga o'quvchilar ustozlari bilan tez-tez kelib turishlari odatiy holga aylangan.

– Poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 214-maktab o'qituvchisi Nasiba Mirsoatovalaman, – deya tanishtirdilar ustoz o'zlarini. – 28 yildirki, o'qituvchilik kasbini ardoqlab kelaman. Shu yillarda davomida «Tong yulduzi» o'quvchilarning eng sevimli nashri ekanligiga amin bo'ldim. Obunachilarimiz soni 80 nafardan oshdi. Quyida opaning qalamkash shogirdlari ijodidan namunalar havola qilyapmiz:

## ARAZLADI KIYIKCHA

Yaylovdagi bir kiyikcha,  
Arazlabdi to'dadan.  
Uzoqqa ketib qolib,  
Adashibdi podadan.



Arazlagan kiyikcha,  
Bir o'zi o'lar edi.  
Ketidan qolmay sherxon,  
O'ljasin poylar edi.

Buni sezgan kiyikcha,  
Chaqirdi onasini.  
Ammo bexabar ona,  
Tinglamas nolasini.

Shunda yirtqich sher kelib,  
Unga hamla qilibdi.  
Kiyikcha ayriliqning,  
Yomonligin bilibili.

Elyorbek NURIDDINOV,  
7-«A» sinf o'quvchisi

## IJOD ZAVQI

(Boshi o'tgan sonda)



## G'ALATI TUSH

Bedana esa cho'lда,  
Lapanglaydi o'ng-so'lga.  
Lochin piyoda yurar,  
Eshak bulutda turar.  
Qag'-qag' deganda chumchuq,  
Qarg'a toshar uchuq.

– U-u desa, – qaldiring'och,  
Hayron bo'lar tilog'och.  
Vijirlab sayrar ukki,  
Eshitmay deya dakki.

Sakrab-sakrab dengizda,  
Suzib borarkan chivin.  
Bolalarni bildirmay,  
Chaqib olarkan delfin.

Ishyoqmas chumolilar,  
Ma'rab qo'yar har zamon.  
Qo'zichoqlar donlarni,  
Timay tashir in tomon.

G'ozlar derkan vaq-vaqa,  
Qo'shig'imiz shunaqa.  
Maqtanib g'o-g'olaydi,  
Tuxum qo'yib qurbaqa.

Axalteka otlari,  
Duning zo'r zotlari.  
Yotar ekan yalpayib,  
Qorinlari qappayib.

Begemot esa chopqir,  
Ucharkan misli shamol.  
Har qancha bo'lmanq topqir,  
Qolardingiz ko'rib lol.

Bu qandayin bo'ldi sir?  
Bo'ldim-ku, tushga asir.  
Voqealar ajoyib,  
Shu taxlitda g'aroyib.

Etarkan tinmay davom,  
Nuqta qo'ydim men, tamom.  
Yo'q-yo'q, shoshibman biroz,  
Yoqqan bo'lsa juda soz.

Toping bo'lsa gar xato,  
Sizlar uchun muammo.  
Bo'lmas deyman tush asli,  
Ko'rilgandir qish fasli!

(TAMOM)

Bahrom AKBAROV

(Davomi bor)

Sa'dulla SIYOYEV tarjimasi



*Yangi yil ham eshik qoqyapti. Hademay archa atrofida Yangi yil bayramlarini boshlab yuborasizlar-a? Archa atrofida bobongiz sizga baxshilar haqida so'zlab bergenmi?*

*Qashqadaryolik O'rol bobo nabiralariga, hatto Qorbobo hamda Qorqizga ham bu yil ajoyib sovg'a tayyorlab qo'yibdilar. Biz bu sirdan voqif bo'lib, Yangi yil ostonasida ana shu kutilmagan sovg'ani sportsevar bolalarga tuhfa etmoqchimiz, ya'ni chiroqchilik Xoliyor polvon haqida turkum maqolalardan birini e'tiboringizga havola etmoqdamiz:*

# TO'DACHORBOG' KURASHI HAQIDA QO'SHIQ

Qarang, qizidi gurung, O'rol bobo so'yaydi, kurashdan so'yab turib, kelajakni o'yaydi.

«Polvonlarni eshitib, nabiralar ruh olsin, m i y a s i d a n bekorchi o'yayollar yo'qolsin. Or nima, g'urur nima, bilib o'ssin farzandlar, or bo'limsa, elning orini qanday saqlar?!

Xayolida shu o'ylar, bobo hikoya so'ylar. Nabiralar tinglaydi, to'lib-toshgandir o'ylar...

...Chiroqching Ko'kdala elida bir avlod bor. «Qodir polvon avlod» polvonlari ko'p bisyor.

Qodir polvon zo'r polvon, bo'lgan mashhur rikobchi, Buxoro amiringin chin polvoni, ishonchi.

Turkman-i afg'on elda dovrug'i ketgan uning, butun Turon zamini ta'rifi tutgan uning.

Shu polvonning nevarasini Xoliyor polvon deydilar, u ham bobosi kabi g'olib bo'ldi ko'p yillar.

Ayniqsa, yoddan chiqmas, Dehqonobodagi to'y, surxonlik Ziyod alpni tappa bosgandi, voy-bo'y!

— Aytib bering, bobojon, o'shanda nima bo'ldi?

Nabiralar qiziqib bobosiga tikildi.

Buvasi gap boshladi og'ziga nosni tashlab, xuddi kino ko'rganday iyak, soqolin qashlab:

— Unda sizlar dunyoda bor eding, saksoninch yillarda Xoliyor polvon zo'redi.

Uzun kelbat, keng yelka, bilakkali gurzidek, oyoqlari filnikidek, ko'zi shernikidek.

Tippa-tikka chiqar edi, pishqirardi ushlashsha, raqib chalar, u chap berib, usul qo'llardi «qo'shsha».

Raqibi yerga qular, Xoliyor tushar ustidan, ehtiyyot bo'lmaganni ketkazardi hushidan.

Buva nosin tuflab, choydan xo'pladi. Peshonasin qashlab, fikrin to'pladi.

— O'shanda Dehqonobodning savdo bo'limi boshlig'i katta to'y berdi. To'ylar ko'payib, olishlar ham qaynagan payt.

*Gurung yaxshi... Dilbar gurunglar yaxshi. Bejizga davraning to'rida o'tirmas baxshi.*

*Baxshi, u yaxshilikdan, egzulikdan so'zlaydi. Mardlik, oriyat bor bo'lsin, deb bo'zlaydi. Baxshilarni tinglasang, qalbing poklanadi, yaxshi polvon tillarida zo'r ovoza bo'ladi. Galdir-guldur gurungdan charchog'ing to'kiladi, fikrlar almashib, tafakkuring to'ladi.*

*Ayniqsa, to'rtta o'zbek yig'ilsa, mavzu kurash, gurung bo'lar tong qadar, esga kelmaydi targash. Moziydan so'z ochilar, o'tganlar ham yodlanar, so'ylaganlar savobda, tinglaganlar shodlanar...*

yoqardi? Surxondaryo yigitlari burgut misol boqardi.

Shu pallada kelib qoldi Xoliyor polvon davraga, bakovulchi xabar topib bordi uning oldiga.

— Hoy, Xoliyor polvon, yaxshimisiz, zo'rmisiz, Surxondaryo polvonlari bugun berdi dodimiz. Uchovida uchta tovoq, raqibini kutmoqda. Uchinchi tovoqqa chiqing, or ekan yomon narsa. Davrada ham turolmayman, alam qilar judayam, yiqlisangiz, yiqlarsiz, chiqing nima bo'lsayam!

Xoliyor polvonning yuziga qon yugurdi. Yuragi tez-tez urdi. Bakovulning cho'chibroq gapirayotganidan og'rindi. Qoni ko'pirdi.

— Polvon buva, olishsam, birinchi tovoqni olgani bilan olishaman.

— Hoy xaloyiq, quloq solinglar! Davrada birinchi tovoq polvonlari olishyapti. Birinchi tovoqni olgan surxondaryolik Ziyodulla polvonga o'zimizning Chiroqchi elidan, ko'kdalalik Qodir polvonning nevarasi Xoliyor pahlavon talabgor bo'lib chiqdi.

Xullas, Ziyodulla polvon 25 metrlardan o'ynab-o'ynab keldi, kun omadli bo'lganiga quvnab-quvnab keldi. Keldiyu, shaxt ushlab, usul qilmoqchi bo'ldi. Xoliyor polvon mahkam turdi, Ziyodni ortga surdi.

Ziyod polvon qo'lini bo'shata turib, Polvon, mahkam turdingiz», deganek qarash qildi. Yana nimadir dedi.

Ikkinci qo'lda u yana uzoqdan yugurib kelib, Xoliorni chalmoqchi bo'ldi. Xoliyor polvon esa chap oyog'ini

Bir kunda o'ntacha, balki undan ham ko'p to'ykurash bo'lar, Qashqadaryoning barcha tumanlaridan, Surxon-u Buxorodan alplar kelardi. To'ylarning ko'pligidan ba'zi kurashlar kunduzi, ba'zilari kechqurun bo'lar, tomosha to tonggacha davom etardi.

D e h q o n o b o d chekka hudud, ko'pdir toshlari, tog'i, kurash-sevar qish-log'i bor,



To'dachorbog' qishlog'i... Keng maydonga joy qilingan, chiroqlar yoqilgan, kunduzidek bo'limasa-da, atrof ancha yorishgan. Surxon yeri bu tumaniga chegaradoshdir asli. Alpomishdek polvonlari, ko'pu elning bilsangiz.

O'sha kuni surxonliklar baxti kuldil, ochildi, Qashqadaryo polvonlarin yiqitib xursand bo'ldi. Boz ustiga, uchta «tovoq» surxonliklar qo'lida. Raqib kim deb g'olibona boqar Qashqa eliga. Bunday holat kimga yoqar, aiting, kimga

orqaga tortib, bir lahzada o'ng oyog'i bilan Ziyodni chalib yubordi.

Ziyod polvon havoga muallaq bo'lib, bosh va oyog'i bir tekis bo'lib, uzunasiga yiqlidi.

To'dachorbogqa yig'ilgan haloyiq qiyqirib yubordi:

— Halo! Halo!

Odamlar go'zal lahzadan mast bo'ldilar. Xoliyor polvon chiroqli usul bilan qashqadaryoliklarning orini olib berdi. Tomoshabinlar yugurib kelib, g'olib pahlavonni, ta'bir joiz bo'lsa, el xaloskorini olqishlay ketishdi. Uni ko'tarib olib, kimdir ko'zidan, kimdir yuzidan, kimdir sochidan, yana bira boshidan o'pa ketdi. Belbog'i ham yechib oldilar, yaktagini ham yechib oldilar. «O'g'lim senday polvon bo'lsin», deb ko'zlariga surtib oldilar.

Hamma xursand, hamma shod, orli el dil xushlardi. Bu yoqda na'ra tortib, Ziyod yerni mushtlardi. Ust-boshi chang, alam zohir yuzida. Dedi: «Do'xitir, kurashamiz, kel hozirning o'zida. Bitta yangi mototsikl qo'yar ekan zotiga», talab soldi qayta boshdan kelib g'olib qoshiga.

Xoliyor polvon qat'iy turib, polvon qo'lini qisdi. Peshonasidan o'pib, uni bag'riga bosdi.

— Ziyodullajon, men zot uchun, mablag'uchun ushslashmayman. Ertaga kel, zot qo'ymasin, mayli, olishay sen bilan! Men bir kunda bir polvon bilan ikki-uch marta davraga chiqmayman,

— Xoliyor polvon shunday dedi-yu, Ziyodni bag'riga tortdi. Oy yomon-da, yiqligan-chun, Ziyodning xo'rliги ortdi.


Shu-shu Ziyodulla polvon Qashqadaryoga kelmadi. Boshqa kurashga ham chiqmadi...

Oradan bir oy o'tib, Ziyod polvonning tog'asi Xoliyor polvon Chiroqchiga keldi. Maqsadi, jiyanini yiqitgan adashi Xoliyor polvonni ko'rib, unga baho berish edi. Chiroqchilik Xoliyor polvon bilan uchrashganda, bahodirning chindan ham devqomat ekanligiga iqror bo'ldi: «O'zi palagida bor ekan-da», deya tan berdi, qaror berdi.

...Xoliyor polvon uzoq yillar elni shod ayladi, har bir o'zbek orzulaydi uningdek polvon farzand. U hozir ham Chiroqching kurashiga mas'uldir, davralarda bakavullik ishi xalqqa ma'quldir.

*Ey nabiram, niyat qildim, sen uningdek polvon bo'l, hech bo'lmasa, fidoyi bo'l, elga manzur inson bo'l!*

*Bolajonlar, shu joyda hikoyamni to'xtatay, yaxshilardan o'rnak oling, so'zim mustasar etay...*



## QISH G'AMINI YOZDA YENG

Xalqimizda «Qish g'amini yozda ye» degan o'rni hikmat bor. Unga amal qilgan kishilar yozda gaz isitish pechlarini oqlaydilar, sozlaydilar, mo'rikonlarni qurumlardan tozalaydilar. Bu bejiz emas, albatta. Chunki qish tadorigini ko'rmanaq inson azyiat chekiq qolishi mumkin.

Vaholanki, sodir bo'layotgan yong'inlarning aksariyati isitish pechlaridagi nosozliklar natijasida kelib chiqapti. Befarqliq - eng yomon illat. Ayrim hamyurtlarininng gazli yoki elektr asboblaridan foydalanishda befarqlikka yo'l qo'yishlari natijasida ayanchli oqibatlar kelib chiqadi. O'chirilmasdan tashlangan sigareta, elektr simlaridagi qisqa tutashuv, yoniq holda qoldirilgan gaz plitasini ham yong'inga sabab bo'lib, qancha ko'ngilsizliklarni boshlab kelishi mumkin. Bularning oldini olish uchun esa bizdan ko'p narsa talab qilinmaydi: biroz e'tiborli bo'lsak va boshalarga ham shuni o'rnatksak, bas!

*Mo'min RISBEKOV,  
Toshkent shahar, 12-XYOXO  
kichik inspektori*

**O'ZINGIZ TOPING**  
Egizaklardirmiz biz,  
Biri o'g'il, biri qiz.  
Fotima-Husamizmi,  
Hasan-Zuhramizmi biz?

Gazetamizning ziyrak, zukko muxlislari ushbu rasmlarni respublika ixtisoslashtirilgan san'at litseyining 1-«A» sinif o'quvchisi Mirodil Nig'mattullayev chizgan, desak ishonmasliklari tuyin. Ochig'i, avvaliga jajji bolakayning mana shunday rasmlar chizishiga biz ham ishonmagandik.

## MIRODIL



Mirodil qisqa fursatda sinfdagi eng a'lochi o'quvchilar safidan o'rin oldi. Tirish-qoqligi, izlanuvchanligi bilan ustoz Sabohat opa Mahkamovaning ham e'tiborini qozondi.

O'zi hali juda kichik bo'lsa-da, Mirodilning kelajakdag'i orzulari katta: dizayner-muhandis bo'laman, deydi, arxitektor bo'lib, chiroysi binolar qurib, O'zbekistonimizni yanada ko'rkan qilaman, deydi...

Biz nima ham derdik, Mirodilbek qaysi kasb egasi bo'lmasisin, ota-onasiga munosib, yurt koriga yaraydigan inson bo'lib kamol topsin!

*O'z muxbirimiz*

O'g'lidi tasviriy san'atga bo'lgan mehrni juda kichikligi danoq payqagan onasi Dildoraxon uni mazkur litseyga o'qishga berishga ahd qildi. Ustozi ko'rmagan shogird ming maqomga yo'rg'alar, deyishadi-ku, axir.

Ingliz tili BMTning rasmiy ish yuritish tillaridan biri. Bu tilda Buyuk Britaniya,

Irlandiya, Shimoliy Amerika, Avstraliya, Yangi Zellandiya, Osiyo va Afrikadagi ko'pgina mamlakatlarda so'zlashiladi. Bu tilda yer yuzidagi 500 mln.dan ziyod kishi gaplashadi. Umid qilamizki, Siz ham bu tilni katta qiziqish bilan o'rganasiz.

Shunday qilib, I-mashg'ulotimizni boshlaymiz.

## ENGLISH ALPHABET

Ingliz tilida 26 ta harf bor. Bular quyidagilar:

Aa [ei]	Bb [bi:]	Cc [si:]	Dd [di:]	Ee [i:]	Ff [ef]
Gg [dʒi:]	Hh [eɪtʃ]	Ii [aɪ]	Jj [dʒeɪ]	Kk [keɪ]	Ll [el]
Mm [em]	Nn [en]	Oo [ou]	Pp [pi:]	Qq [kju:]	Rr [ə:]
Ss [es]	Tt [ti:]	Uu [ju:]	Vv [vi:]	Ww [dʌblju:]	Xx [eks]
Yy [wai]	Zz [zed]				

**Ruknimizning bugungi mashg'ulotini ustoz Risolat opa ISMOILOVA olib bordi**

Dunyoda har bir narsaning vazni mavjud. Hatto biz yashab turgan Yer sayyorasining ham og'irligi hisoblab chiqilgan. Olimlarning taxmin qilishlaricha, uning og'irligi 5,976 sekstillion tonnani tashkil etarkan.


\*\*\*

*Eng uzun  
muzlik esa  
G'arbiy  
Antraktidadagi  
Lambert*

*muzligidir. Uning kengligi 64 km. bo'lib,  
uzunligi 400 km.ga  
teng.*

\*\*\*

*Chilining Atakama  
cho 'lida umuman  
yomg'ir yog'mas  
ekan. Qariyb 400 yil  
davomida bu yerda  
biror marta ham  
yomg'ir bo'lmagan.*



### Muassislari:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.

«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kangashi.

«SOGLOM AVLOD UCHUN» hukumatga

qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

### BOSH MUHARRIR:

To'iqin HAYTOV

Dizaynerlar:

Fazliddin SHOYODGOROV,

Olovuddin ORIPOV

Rassom:

Feruz MATYOQUBOV

Navbatchi:

Gulyuz ORIFJONOVA

### Gazeta

O'zbekiston

Matbuot

va

axborot

agentliigid

0208-raqam

bilan

2007-yil

2-fevralda

ro'yxatdan

o'tgan.

### TAHIR HAY'ATI:

Svetlana INOMOVA,

Odina JAMOLDINOVA,

Jahongir MUSAYEV,

Jabbor RAZZOQOV,

Murtazo SULTONOV,

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinsobasi),

Feruza ADIROVA

(mas'ul kotib),

Dilmurod RAHMATILLAYEV,

Dilshoda DADAJONOVA

### Manzilimiz:

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Indeks: 100129,

Obuna indeksi: 198,

e-mail: tong1924@bk.ru

www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-27-25, 244-63-08

Tel/faks:

(99871) 244-38-10

### «O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.

Tahririyatga kelgan barcha

qo'lyozmalar tahrir qilinadi,

mualliflarga qaytarilmaydi.

Haftaning dushanba kuni

chiqadi. Shakli A-3,

2 bosma taboq.

ISSN 2010-6092

Adadi - 31014

Buyurtma N: J 3408